# FUTBOL O‘YINI TARIXI, TEXNIKASI VA TAKTIKASI

**Valiyev Azizxon Botir o'g'li**

https://doi.org/10.5281/zenodo.14825916

***Annotatsiya.*** *Futbol — dunyoning eng mashhur sport turlaridan biri bo‘lib, uning paydo bo‘lishi va rivojlanishi tarixi juda qadimiydir. Futbol o‘yinlari turli xalqlarning qadimgi an’analarida mavjud bo‘lsa-da, bugungi zamonaviy futbolning shakllanishi XIX asrning o‘rtalarida Angliyada boshlangan. O‘yin tezda boshqa Yevropa mamlakatlariga tarqaldi va jahon bo‘ylab keng yoyildi. Futbolning paydo bo‘lishi va rivojlanishi, shuningdek, uning xalqaro miqyosda muhim ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lishi, sportni faqat o‘yin sifatida emas, balki global madaniyat, xalqaro aloqalar va ommaviy tadbir sifatida ham rivojlanishini ta’minladi. Bugungi kunda futbol nafaqat sport turi, balki butun dunyo bo‘ylab madaniy va iqtisodiy o‘zgarishlarga sabab bo‘lgan bir fenomen hisoblanadi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Futbol, sport tarixi, rivojlanish, Angliya, xalqaro futbol, futbol madaniyati, futbol federatsiyasi, futbol jahon chempionati, futbolning ijtimoiy roli, sportning global ahamiyati.*

# HISTORY, TECHNIQUE AND TACTICS OF THE GAME OF FOOTBALL

***Abstract.*** *Football is one of the most popular sports in the world, and the history of its emergence and development is very ancient. Although football games exist in the ancient traditions of different nations, the formation of today's modern football began in England in the middle of the 19th century. The game quickly spread to other European countries and became widespread throughout the world. The emergence and development of football, as well as its significant social and economic importance on an international scale, ensured the development of sport not only as a game, but also as a global culture, international relations and mass event. Today, football is not only a sport, but also a phenomenon that has caused cultural and economic changes throughout the world.*

***Keywords:*** *Football, history of sports, development, England, international football, football culture, football federation, football world championship, social role of football, global importance of sport.*

# ИСТОРИЯ, ТЕХНИКА И ТАКТИКА ИГРЫ В ФУТБОЛ

***Аннотация.*** *Футбол — один из самых популярных видов спорта в мире, история его возникновения и развития весьма древняя. Хотя футбольные игры существуют в древних традициях разных народов, формирование современного футбола началось в Англии в середине 19 века. Игра быстро распространилась в других европейских странах и получила широкое распространение по всему миру. Возникновение и развитие футбола, а также его значительное социальное и экономическое значение в международном масштабе обусловили развитие спорта не только как игры, но и как глобальной культуры,*

*международных отношений, массового мероприятия. Сегодня футбол — это не только вид спорта, но и явление, вызвавшее культурные и экономические изменения во всем мире.*

***Ключевые слова:*** *Футбол, история спорта, развитие, Англия, международный футбол, футбольная культура, федерация футбола, чемпионат мира по футболу, социальная роль футбола, мировое значение спорта.*

---

Futbol o‘yini barcha mamlakatlarda o‘ynaladi. O‘yinlar turi ichida futbol eng keng tarqalgan o‘yin. Futbol o‘yinini umuman butun yil davomida o‘ynash mumkin.

Fiziologik nuqtai nazardan qaralganda muskullar ish faoliyatini jadal o‘zgaruvchan sur`atda ishlashni talab etadi to‘p uchun kurash o‘yinchilardan bardamlikni, qat`iylikni, ustuvorlilikni, o‘yinchilardan turli ko`rinishdagi aldamchi harakatlarni epchillik va zehnni rivojlantiradi.

Futbol qadimda paydo bo‘lgan bo‘lib, yunonlar to‘p o‘yinini juda qadrlaganlar, hatto uni gimnastlar maxsus maktablarining jismoniy mashqlar dasturiga kiritganlar.




Futbol inglizcha so`zdan olingan bo‘lib, "fut"-"oyoq", "ball"-"to‘p" degan ma`noni anglatadi. Shu nom yozilishi farqi bilan Ispaniya, Rossiya, Fransiya, O‘zbekistonda saqlanib qolgan. Nemislarda u "Fusbal", Vengerlarda "Labduragash", Amerikada "sokker" deyiladi.

Angliya zamonaviy futbolning asoschisi hisoblanadi. Futbol Angliya maktablari burjuaziya vakillari uchun jismoniy tarbiya dasturlariga kiritildi. Angliyada ilk bor futbolni keyingi rivojlanishini ta`minlash uchun o‘yin qoidalari aniqlangan.

1862-yili Angliyada o‘sha vaqtdanoq futbol muassasalari bor edi, umumlashtirilgan o‘yin qoidalari 1863-yili futbol assotsiatsiyasini tuzilishi bilan bu qoidalari tasdiqlandi. Futbol bilan bir qatorda futbol-regbi o‘yini ham shakllanib bordi.

Angliyadan futbol butun dunyoga tarqaldi. 1875-yildan boshlab futbol Gollandiyada, keyinroq esa Daniyada va boshqa Markaziy Yevropa mamlakatlarida keng tarqaldi.

Futbol sohasi bo‘yicha xalqaro aloqalar rivojlanib bordi. Bu aloqalarni 1872-yili Glazgoda o‘tkazilgan Angliya va Shotlandiya jamoalari o‘rtasidagi musobaqalar boshlab berdi. O‘yinlar avj olishi bilan bir qatorda futbol qoidalari ham takomillashib bordi. 1882-yili davlatlar idoralari va jamoat tashkilotlarining bir-biriga bo‘ysunadigan har bir bosqichida (instantsiya) yuqori o‘yin sifatini oshirish maqsadida, hozirga qadar futbol qoidalariga o‘zgartirish kiritish haqida hukm chiqaradigan xalqaro kengash tuzildi.

1872-yili Chelen ko‘chma kubogi uchun musobaqasi o‘tkazildi. 1904-yili hozirda 150 dan ortiq mamlakatlar a`zo bo‘lgan xalqaro futbol federatsiyasi (FIFA) tuzildi. Shu bilan bir qatorda 1954-yili hozirda 34 mamlakat a`zo bo‘lgan Yevropa futbol ittifoqi (UEFA) tuzildi. 1930-yildan boshlab har 4 yilda milliy terma jamoalar uchun futbol bo‘yicha jahon chempionati va 1968-yildan beri futbol bo‘yicha Yevropa chempionati o‘tkaziladi. 1900-yil futbol olimpia sport turiga kiritildi, lekin faqat 1908-yili rasman tan olinib olimpia o‘yinlari dasturiga kiritildi. 1954-yili Osiyo futbol Konfederatsiyasi (OFK) tuzildi va hozirda 44 dan ortiq mamlakat a`zodir.

UEFA rahbarligida keyingi kuboklar uchun o‘yinlar o‘tkaziladi: 1956-yil Yevropa chempionlari kubogi, 1951-yil kubok sohiblari kubogi va 1971-yil UEFA kubogi uchun musobaqalar avval bozor savdo-sotiq kubogi (yarmarka) nomi bilan o‘tkazilgan va bundan ham mamlakatning eng kuchli federatsiya jamoalari ishtirok etgan, lekin yuqorida sanab o‘tilgan 2 kubok o‘yinlarida qatnashganlardan tashqari jamoalar qatnashish huquqiga ega bo‘lgan.

1984-yildan boshlab, o‘smir jamoalar uchun UEFA turniri o‘tkazilib kelinmoqda. Bundan tashqari, 1977-yildan beri har 2 yilda FIFA doirasida yoshlar o‘rtasida jahon chempionati o‘tkazilib kelinmoqda.

Sotsialistik mamlakatlarda 1945-yildan so‘ng bu sport turi bo‘yicha katta muvoffaqiyatlarga erishishdi.

Futbol ommaviy jismoniy rivojlantirishning, kishilar salomatligini mustahkamlashning eng ommabop vositasi hisoblanadi.

Mamlakatimizda millionlab kishilar ushbu sport turi bilan muntazam shug’ullanadilar.

Futbol chinakam atletik o’yin. U tezkorlik, chakkonlik, chidamlilik, kuchlilik, va sakrovchanlikni rivojlantirishga yaqindan yordam beradi. Futbolchi o’yin paytida xaddan tashkari ko’p ish bajaradi.Bu esa odamni funksional imkoniyatlarini oshiradi.Ma’naviy-irodaviy xislatlarini tarbiyalashga yordam beradi.Charchok ortib borayetgan sharoitda ko’p va xilma xil

harakatlar qilish yuksak o'yin faoliyatini saklab turishuchun zarur bo'lgan irodaviy xislatlar namoish etishni talab etadi.

Futbol o'yining negizida o'yinchilarni umumiy maksad g'alabaga intilish birlashtirib turgan jamoalardan ikkitasining kurashi yotadi. G'alabani qo'lga kiritishga intilish futbolchilarni jamoa bo'lib harakat qilishga bir-biriga uzaro yordam berishga urgatadi, tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Futbol o'yini vaqtida har bir o'yinchi o'zining shaxsiy imkoniyatlarini ko'rsatish imkoniyatiga ega.

Futbol mashg'ulotlari va musoboqalarini ko'pincha iqlim va meteorologiya sharoiti keskin uzgarib ketadigvn sharoitda qariyb bir yil buyi davom etgani uchun, bu o'yin jismoniy jixatdan chinikishga ham organizmning qarshilik kursatish qobiliyati ortishi va adabtatsiya imkoniyatlari kengayishiga ham yordam beradi.

Boshka sport turlaridagi mashg'ulotlarda ko'pincha futboldan qo'shimcha sport turi sifatida foydalaniladi. Buning sababi shundaki,futbol spolrtchining jismoniy rivojlanishiga aloxida ta'sir etadi, shuning uchun tanlangan sport ixtisosidan yaxshi tayyorgarlik kurishga yordam berishi mumkin.

Texnik usullar bu futbol o'yinini vujudga keltirish vositasidir. Yuksak sport natijalariga erishish uchun ko'p jixatdan ana shu xilma-xil vositalarni kanchalik tulik bo'lishiga, rakib jamoa o'yinchilari qarshilik kursatayotgan, ko'pincha esa charchoq orta borayotgan sharoitda o'yin faoliyatidagi turli xolatlarda ularni kanchalik moxirlik bilan,samarali qo'llanishga boglik.

O'yin taktikasi o'yinchilarni raqib ustidan galaba kozonishiga karatilgan individual va jamoaviy harakatlarni tashqil qilishni, ya'ni jamoa futbolchilarini muayyan rejaga binoan aynan shu, aniq raqib bilan muvvaffaqiyatli kurash olib borishga imkon beradigan birgalikdagi harakatlar tushiniladi.

Taktikadagi asosiy vazifa xujum va himoya harakatlarini maksadga erishtira oladigan eng qo'lay vosita, usul va formalarni belgilashdan iborat.

**REFERENCES**

1. Nurimov R.I. Futbol. Darslik. T: 2005
2. Xolmirzayev E.J., Nematov B.I., Xo'janiyozov B.I. Sport anjomlari va
3. jihozlari - T., 2010.
4. Imomxujayev A. Futbol - quvonchim, dardim, faxrim.- T., 1996.
5. Sergeev G.M. Istoriya futbola v Uzbekistane. V sbornike nauchno`x trudov. Tashkent, 2001.
6. Simakov V.I. Futbol. Prosto`e kombinatsii. M., FiS, 1987. Futbol. Pravila sorevnovaniy. M., RFS, 1997.

7. Nurimov R.I. Yosh futbolchilarni texnik va taktik tayyorlash. O`quv qo` llanma. - T.: UzDJTI, 2005.
8. Talipdjanov A.I. Yuqori malakali futbolchilar tayyorlashning zamonaviy tizimi. O_quv qo_llanma. - T., 2012.